NAMANGAN TARIXINI ASRAYOTGAN MASKAN

Raimqulova Zulayxo Isomoil qizi
Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi katta ilmiy hodimi

Annotatsiya

Ushbu maqolada muzeylarning paydo bo'lish tarixi, ularning vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yurtimiz mustaqilligidan so'ng muzeylarga berilgan e'tibor hamda Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muzey, tarix, muzeyshunoslik. Namangan muzeyi, ma'naviyat, ko'rgazma, eksponat.

Аннотация

В данной статье представлена краткая информфция об истории возникновения музеев, предотавляется информфция об их обязанностях. В статье рассматривается внимание, уделяемое музеяим после обретения страной независимости, а также история Государственного музея истории и культуры Наманганской области.

Ключевые слова: музей, история, музеология. Музей Намангана, культура, выставка, экспонат.

Abstract

This article provides information about the history of the emergency of museums,their functions. The attention paid to museums after the independence of our country, as well as the history of State Museum of History and Culture of the Namangan Region are highlighted.

Keywords: Museum, history, museology.Museum of Namangan,culture, spirituality, exhibition, exhibit.

Muzey — tarixiy, madaniy yoki ilmiy qimmatga ega bo'lgan noyob topilmalar, san'at asarlari va shu kabi narsalarni to'plash, saqlash, o'rganish hamda ommaga

namoyish qilish bilan shug'ullanuvchi muassasadir. Muzey so'zi qadimiy yunoncha «mouseion» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «muzalarga bag'ishlangan joy» ma'nosini anglatadi Ma’lumotlarga ko’ra, muzeylar dastlab antik davrda Yunoniston va Rimda vujudga kelgan. Ayni shu davrda kolleksiyalar to’plash an’anasi shakllangan. Yunonistondagi Gelikon tog’i yonida turli tasvirdagi yodgorliklar saqlanadigan joy muzeylarning ilk ko’rinishlaridan biri hisoblangan. Zamonaviy «muzey» so’zi qat’iy tartibli zallar va ma’rifiy ekskursiyalarni o’zida jamlagan joyni hayolimizda jonlantiradi. Antik davrda «muzey» shunchaki san’at buyumlari yoki fan ashyolari saqlanadigan joyni anglatmagan. Muzey va muzeyshunoslik juda qadim tarixga ega. Qadimgi yunon an’analarida muzalar deb san’at va fan ma’budalari, she’riyat, musiqa, tarix, falsafa va turli hunarmandchilik homiylari atalgan. Antik dunyoda Museyon, eng avvalo, olimlar, faylasuflar, shoirlar va rassomlar to’planadigan joy bo’lgan. U eksponatlar omboridan ko’ra ko’proq madaniy-ma’rifiy markaz xisoblangan. Eng mashhur misollardan biri miloddan avvalgi III asrda Ptolemeylar sulolasi davrida asos solingan Aleksandriya Museyoni edi. Bu yerda olimlar astronomiya, matematika, tibbiyot, falsafa bilan shug’ullanishgan va Museyon devorlari orasida keyinchalik fan poydevorini shakllantirgan g’oyalar tug’ilgan. Muzeylar ilm fan maskanlari o’chog’i sifatida qadrlangan. Qizig’i shundaki, zamonaviy muzeylardan farqli o’laroq, Museyonga kirish cheklangan edi. U yerga oddiy fuqarolar kira olmagan. Bu o’ziga xos bilim markazi bo’lib xizmat qilgan. Asosiy maqsad ommani ko’ngilochishi yoki ta’lim olishi emas, balki tadqiqotlar va ijodiy ishlarni qo’llab-quvvatlash bo’lgan. San’at, madaniyat va fanda erishilgan yutuqlarning namunalaridan iborat kolleksiyalar to’plash Yevropada Uyg’onish davrida dastlab, Italiyada, so’ng esa Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda an’anaga aylangan. Italiyada XV asrda moddiy-madaniy buyumlarni yig’ish va namoyish etish ishlari aniq tizim asosida tashkil etilgan bo’lsa, XVI-XVII asrlarga kelib, Fransiya, Angliya, Germaniyada ham muzeylar tashkil etish odat tusiga kirgan. 1753- yil ochilgan Londondagi «Britaniya muzeyi»,

1793- yil tashkil etilgan Parijdagi «Luvr» muzeyi G'arbiy Yevropadagi ilk ommaviy muzeylar sanaladi.

Vaqt o'tishi bilan muzey ish faoliyati o'zgardi. Uyg'onish davridan boshlab va ayniqsa XVIII–XIX asrlarda muzeylar hamma xohlovchilar uchun ochiq bo'lgan san'at asarlari, arxeologik topilmalar va ilmiy kolleksiyalar namoyish etiladigan ijtimoiy makonlarga aylandi. Shunday qilib, «muzey» so'zi muzalar maskanidan tortib, zamonaviy tushunchadagi bilim va madaniyatning ommaviy xazinaxonasigacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi. XIX asrga kelib dunyo miqiyosida ko'plab yirik muzeylar vujudga keldi. 1819- yilda Madriddagi «Prado muzeyi», 1873- yilda Moskvadagi «Tarix muzeyi», 1852- yilda Sankt-Peterburgdagi «Ermitaj», 1870- yilda Nyu-Yorkdagi «Metropoliten» muzeylarini misol qilib keltirish mumkin. O'sha davrlarda ko'plab davlatlarda bo'lganidek, O'rta Osiyoda ham katta muzeylar barpo etilgan.Toshkentdagi ilk muzey 1876- yilda ochilgan bo'lib, u hozirgi «O'zbekiston tarixi davlat muzey»idir. Yurtimizdagi dastlabki muzeyning faoliyati A.P.Fedchenko, N.A. Mayev, V.F.Oshanin, I.V.Mushketov, V.V.Bartold kabi olimlarning sa'y-harakatlari va tashabbuslari bilan shakllanib borgan. XX asrga kelib O'zbekiston hududida ko'plab muzeylar, shuningdek, turli sohalarni qamrab olgan muzeylar bilan birga, badiiy va uy muzeylari ham tashkil etildi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar kabi muzeylar sohasiga ham kata e'tibor qaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan Farmon, Qonun, qarorlar yurtimizda bu sohaning keng ko'lamda rivojlanishi uchun asosiy me'yor vazifasini o'tash bilan birga muzeylar faoliyatiga davlat va jamiyat miqiyosida yuqori darajada e'tibor berilishini ko'rsatib berdi. Xalqimiz orasida muzey madaniy ma'rifiy maskani sifatida asta sekinlik bilan shakllana boshladi. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ham nafaqat Farg'ona vodiysida balki Respublika muzeylari miqyosida ham keksa muzey hisoblanadi.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi – Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining 1918-yil 19-apreldagi qaroriga asosan dastlab 1-maktab binosida fizika fanini chuqur o'rganish uchun labaratoriya shaklida tashkil etilgan. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi Namangan shahridagi 1-maktabning fizika fani o'qituvchisi Vladimir Ivanovich Ivanov tashabbusi bilan 1920-yilda tashkil etilgan. Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi tashkil etilgan dastlabki yillarda jamg'arma fondi, bo'lim va ekspozitsiyalarni ochish uchun yetarli eksponatlar bo'lmagan. Eksponatlar asosan geologiya, minerologiya va zoologiyaga tegishli bo'lib, xazina fondida mingga yetmagan ashyolar bo'lgan. Muzey faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida Turkiston oqsoqollar kengashining 1920-yil 20-avgustdagi qaroriga asosan Namangan shahri markazidagi savdogar Hamdam Qalandarovning do'koni binosi muzey uchun ajratiladi. 1922-yilda muzey eksponatlari soni 2,000 taga yetdi. Shaharliklar tarixiy ashyolarni yig'ishda qo'llaridan kelgancha yordam berishdi. 1923-yilda muzeyda zoologiya, mineralogiya, anatomiya, numizmatika va o'quv qurollari bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Muzeyni yangi eksponatlar bilan boyitishga 1920-1927-yillarda Vladimir Ivanovich Ivanov, 1927-1937-yillarda Inomjon Nizombayev katta hissa qo'shdilar. Dastlab tashkil etilgan vaqtda Namangan shahar o'lkashunoslik muzeyi, 1934-yildan keyin tumanlararo muzey, 1938-yildan M. I. Ben-Gerari nomidagi Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyi deb yuritilgan. 1920-1930-yillarda Namangan M.I.Ben-Gerari nomidagi viloyat o'lkashunoslik muzeyi ko'rgazma zallarini muntazam to'ldirib bordi. Bu davrda muzeyda to'qqizta bo'lim bo'lgan: Zoologiya, Qishloq xo'jaligi, Paxtachilik, Ipakchilik, Agronomiya va zararkunandalarga qarshi kurash, Inqilob bo'limi, Fotosuratlar, haykaltaroshlik va gravyuralar galereyasi, Tarix, arxeologiyabo'li

mi, hunarmandchilik bo‘limlari. 1938-yilda ko'rgazma zallarini qayta jihozlash maqsadida muzey vaqtincha yopildi. 1938-yilda muzey ko’rgazma zallarini qayta jihozlash maqsadida vaqtinchalik ma’lum bir vaqtga yopilgan. 1939- yilda tabiat, tarix, sotsializm qurilishi bo’limlari tashkil etilib, jihozlash ishlari yakunlangach, muzey yana o’z faoliyatini davom ettirgan.

1941-1945- yillarda dunyoni yeg’latgan, qancha insonlarni bevaqt olib ketgan ikkinchi jahon urushi bo’lganligi sababli 1943-yilga qadar muzey o’z faoliyatini vaqtinchalik to’xtatgan. Urush nafaqat iqtisodiy balki ma’naviy tomonlama ham insonlar hayotiga o’z ta’sirini o’tkazgan. 1943-yil 8-sentyabrda O’zbekiston Oliy Sovetining Namangan viloyatini tashkil etish bo’yicha tashkiliy qo’mitasi tomonidan Namangan viloyati o’lkani o’rganish muzeyini qayta ochish to’g’risida qaror qabul qilindi. 1945-yildan viloyat o’lkani o’rganish muzeyi 4 ta bo’limga bo’lingan holda qaytadan o’z ish faoliyatini boshladi.

1970-yildan boshlab muzeyning ilmiy xodimlari etnografik ma’lumotlar va eksponatlar to‘plamini kengaytirdi. Natijada Namangan viloyatiga rahbarlik qilgan, frontda qahramonlik ko‘rsatgan ko‘plab insonlar haqida ma’lumotlar to‘plandi. 1971-1976 va 1978-1979-yillarda Ikromjon Akbarov rahbarligida o‘tgan yillardagi yutuqlar inobatga olinib, muzey 1976-yilda ikkinchi toifadagi muzeylar qatoriga kiritilgan . 1979-1986-yillarda muzey direktori bo‘lgan Hamidxon Dadaboyev davrida muzeyga yangi mos bino qurish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan edi. Qurilish ishlari 1986-yilda boshlangan va bino 1987-yil oxirida qurib bitkazilgan. Bino 3 qavatli, umumiy maydoni 53,201 kvadrat metr, ko'rgazma maydoni 1,700 kvadrat metr, fond zallari 520 kvadrat metrni tashkil etadi. 1987-yilda O‘ktamjon Rustamov rahbarligida yangi binoga ko’chirildi.

Xodimlarning kasbiy salohiyati va samarali mehnati tufayli muzey 1998-yilda birinchi darajali muzeylardan biriga aylandi. Shu yili muzey direktori Saidaxon

Muhammadiyeva rahbarligida 2-qavatdagi tabiat bo'limini jihozlash ishlari boshlandi. To‘ra Ashurov rahbarligidagi viloyat Rassomlar uyushmasi rassomlar guruhi viloyat tabiatini ochib berish maqsadida ko‘rgazma zallarini o‘ziga xos tarzda bezatdi. Ibrohimjon Yusupov 2004-yil avgust oyida Namangan viloyati o‘lkashunoslik muzeyi direktori etib tayinlandi. O‘sha kundan boshlab muzeyning ilmiy salohiyatiga keskin o‘zgarishlar kiritilib, muzey taraqqiyoti rivojlanish bosqichiga yetdi .Jumladan, so’nggi yillarda Namangan viloyatining tarix, etnografiya, sport, Namangan shahri, mustaqillik yillarida Namangan adabiy muhiti ko‘rgazma zallari talablardan kelib chiqib qaytadan rejali asosda o’zgartirildi. 2004-yildan boshlab muzey xodimlari tomonidan ilmiy salohiyatga e’tibor kuchaydi, ayniqsa ilmiy hodimlar tomonidan har yili viloyatimiz tarixi, arxeologiyasi, adabiyot va san’ati, tabiati,mustaqillik yillarida Namangan viloyatidagi o’zgarishlarga oid risola va maqolalar chop ettirib kelinmoqda.

Namangan viloyati hokimining 2012-yil 15-iyundagi 220-son qarori asosida Kosonsoy tumani tarix muzeyi (1980-1995-yillarda Tarix, mehnat va harbiy shon-sharaf muzeyi, 1996-2012-yillarda Kosonsoy tuman xalq muzeyi, 2012-2017-yillarda Kosonsoy tumani o‘lkashunoslik muzeyi) Namangan viloyati tarix va madaniyat davlat muzeyiga filial sifatida biriktirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-son qaroriga asosan Namangan muzeyining nomi «Namangan viloyati tarix va madaniyat davlat muzeyi» deb o‘zgartirildi.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati muzeyi tarkibida hozirda tarix, tabiat, adabiyot, san’at, xazina fond, xotira va qadrlash, ma’naviyat bo‘limlari mavjud. 2-3-qavatlar ko‘rgazma zallari bo‘lib, ularda Namangan viloyati tarixi, tabiati, adabiyoti va san’ati, arxeologiyasini aks ettiruvchi eksponatlar asosida ko‘rgazmalar tashkil

etilgan.(2) Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi xazina fondida 100 mingdan ortiq eksponatlar mavjud, ularning aksariyati noyob va qadimiyligi bilan ajralib turadi. Muzey fondini to'ldirish uchun mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda. Ijtimoiy hamkorlik muzey sohasiga aloqador tashkilotlar, qishloq fuqarolar yig'ini, fermer xo'jaliklari bilan samarali yo'lga qo'yilib muzey fondini yangi eksponatlar bilan boyitib borilmoqda. Bu masala muzeyning galdagi vazifalaridan biri bo'lib, ilmiy tadqiqot izlanishlar olib borilmoqda. Muzeyda va muzeydan tashqarida o'tkazilayotgan ko'rgazmalarda muzey fondida saqlanayotgan eksponatlardan mavzularni yoritishda hamda yosh avlodni ajdodlarga ehtirom tuyg'ularini shakllantirishda foydalanilmoqda. Kelajak avlodni tarixga xurmat ruhida tarbiya qilishda yordamchi bo’lb kelmoqda.Muzeyda muhim sanalar va tarixiy kunlarga bag'ishlangan ko'rgazmalar, tadbir va muloqotlar tashkil etish an'anaga aylangan.Viloyatning barcha tumanlariga uyushtirilgan ko'chma ko'rgazmalar tashkil etilib, chekka hududlarda yashayotgan aholi o'lka tarixi, tabiati, san'ati, madaniyati, arxeologiyasi, hunarmandchiligi bilan tanishtirib kelinmoqda.

Muzey nafaqat Farg’ona vodiysida qolaversa Respublika miqyosida ham o’z o’rniga ega bo’lib viloyatimiz yoshlari, tashrif buyuruvchi fuqarolarimiz, viloyatimiz mehmonlariga xizmat ko’rsatib kelmoqda. Muzeydagi barcha eksponatlar o’z tarixiga ega. Ularning har biri o’tmishdan hikoyalarni so’zlaydi. Madaniy tadbirlar, ko’rgazmalar o’tkazish ham muzey faoliyatida muhim o’rin egallaydi.

Xulosa o’rnida aytganda sayohatchilar qaysi davlatga borsa eng avvalo u yerning muzeylariga tashrif buyuradilar. Shu orqali mamlakat, millat tarixi, madaniyati va an’analari bilan tanishadilar. O’zlariga kerakli bo’lgan xulosani oladilar. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda yashayotgan ekanmiz o’tkan kunga xurmat kelajakka umid bilan yashashda muzeylarning o’rni ahamiyatli. Internet orqali virtual sayohatlarni ham amalga oshirish mumkin ammo real hayotdagi sayohat insonga o’zgacha bir zavq bag’ishlaydi. Tarixga xurmatni saqlash madaniy meroslarni asrash

har bir insonning insoniylik burchi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'naviyat insonni faqat va faqat yuksaklikka olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin Mirzaaliyev. Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyi kecha va bugun. Farg'ona, 2010.
2. Karimov I.I. Muzey tarixiga bir nazar // Madaniyat.– Toshkent, 2019 yil, 12 sentabr. – №37.
1. Obid Tangirov, Tamara Nuriddinova. O'zbekiston davlat san'at muzeyi noyob me'morchilik hamda arxeologik ashyolar tarixiga doir. Toshkent: musiqa, 2019 5-7 bet.
2. Mirzaakhmad ugli, B. S. (2025). Rituals and rituals related to ceramics: Teacher–apprentice traditions. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(4), 116–121.
1. Baxodir o'g'li, E. B. (2025, December). O'ZBEK XALQINING AN'ANAVIY MAROSIM VA URF-ODATLARINING TARIXIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH FALSAFIY TAHLILI (QADIMGI DAVR, ISLOM DAVRI MISOLIDA). In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 1, pp. 20-24).
2. Gulbaxor, M., & Bahodir, S. (2025). TIL O 'RGANISHDA CHATGPT, TARJIMA TIZIMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI. *TADQIQOTLAR*, *76*(3), 17-21.
3. Muzaffar, G., & Bahodir, S. (2025). INSON ORGANIZMIDA UCHRAYDIGAN ICHKI KASALIKLAR. *TADQIQOTLAR*, *76*(2), 71-74.
4. Bakhodir, S., & Dilshoda, R. (2025). EASTERN THINKERS OF THE ERA OF THE FIRST RENAISSANCE. *Global Science Review*, *8*(1), 682-687.
5. Zebo, N., & Bahodir, S. (2025). O 'RTA ASRLARDA ANGLIYA (V-XV ASRLAR). *Global Science Review*, *11*(1), 85-90.
6. Шамсиддинов, Б., & Гуламов, М. (2023). ЛОГИЧЕСКИЕ СООТНОШЕНИЯ

ФИЛОСОФИИ С ЛИТЕРАТУРОЙ. *Oriental Art and Culture*, *4*(3), 332-335.

7. YANGI, V. T. V. M., & YONDASHUVLARI, T. H. OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI "ZAMONAVIY JAHON TARIXSHUNOSLIGIDA FARG'ONA.
8. Zebo, N., & Bahodir, S. (2025). O 'RTA ASRLARDA ANGLIYA (V-XV ASRLAR). *Global Science Review*, *11*(1), 85-90.
9. Shamsiddinov, B. (2022). The importance of supporting innovative activities of entrepreneurs in uzbekistan. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, *11*(11), 165-170.